

O'ZBEKISTONDA KUCHLI IJTIMOYIY SIYOSAT STRATEGIYASI

Maxammadaliyev Murodxon Muzaffarxon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistondagi ijtimoiy siyosat strategiyasi tahlil qilindi va amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar davriy ketma-ketlikda, tarixiy qiyoslash asnosida yoritib berildi.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari, Ijtimoiy himoya, Ijtimoiy islohotlar strategiyasi, ijtimoiy totuvlik, ijtimoiy ta'minot, faol fuqoro, real daromad.*

Kirish

Ijtimoiy siyosat bu- har bir davlat o'z fuqorolarining yashash sharoitini yaxshilashga, ularni hayotiy resurslar bilan ta'mirlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan islohotlarning kompleks tizimi hisoblanadi. Ta'mirlanganlik darajasi iqtisodiy imkoniyatlarga bevosita bog'liq va iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslar sharoitida aholini ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi.

Ijtimoiy himoya esa aholi farovonligini taminlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatdan keskin tafovutlariga barham berish demakdir. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy iqtisodiy erkin faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash, ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish, daromadlarining kafolatlanishi, iste'molchilar himoyasi, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish kabilardir. Demokratik mamlakatlarda ijtimoiy himoya qonun bilan kafolatlangan bo'lib inson huquqlari asosiy element sifatida targ'ib etiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ijtimoiy yaxshilanishlarga erishish dastlab siyosiy huquqlarga, ovoz berish, fuqorolikka ega bo'lish kabilarga qaratilgan. Shundan so'ng biz iqtisodiy huquqlarga va nihoyat sof ijtimoiy huquqlarga o'tdik. Ijtimoiy huquqlar aholining barcha yosh qatlamlarini qamrab oladi va ularning moddiy va ma'naviy imkoniyatlaridan foydalanish erkinligini kafolatlaydi. Ijtimoiy himoyani kuchaytirish, aholini ijtimoiy ahvolini yaxshilash orqali davlat fuqorolarining iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirishi, amaldagi hukumatga nisbatan aholining xayrixohligini kuchayishiga erishishi va o'z legitimligini mutlaq oshirishga erishishi mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan milliy dastur "O'zbek modelida" kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va aholini kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish asosiy tamoyil sifatida ilgari surildi. Bu tamoyil, birinchidan o'zbek xalqining mentalitetidan, tarixiy madaniy qadriyatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, o'tish davrining dastlabki bosqichidagi aholi tarkibi, bozor islohotlari aholi turmush darajasi hali ancha past holda saqlanib turgan sharoitda boshlanganligini ham nazarda tutadi. O'sha davrda O'zbekiston aholi jon boshiga real daromadlar, ish xaqi miqdori, oziq-ovqat mahsulotlari, zarur hayotiy ehtiyoj buyumlari, uy-joy, ijtimoiy-madaniy muassasalar, maishiy xizmat bilan ta'minlanish darajasi bo'yicha sobiq ittifoq davlatlari ichida eng oxirgi o'rinlarga tushib qolgandi va mavjud demografik vaziyat bundan tashqari aholi sonining doimiy ko'payib

borishi mavjud vaziyatni yanada chigallashishiga olib keldi. O'tish davrida bozor tan olmaydigan korxonalar va faoliyat turlari, samarasiz ishlayotgan ishlab chiqarishga barham berildi. Bu dastlabki davrda ishchi va xodimlarning ma'lum bir qismining vaqtincha ishsiz qolishiga olib kelgan bo'lsada bu keyinchalik ishchi kuchining samarali faoliyat turlariga yo'naltirilishiga zamin yaratdi. Dastlabki davrlarda chakana tovar aylanmasi bo'yicha o'rtacha ittifoq ko'rsatkichidan 1,8, Rossiya va Belarussiyadan 2, Boltiqbo'yi respublikalaridan 2,6 barobar past edi. Pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha ham faqat Ozarbayjon va Tojikistondan yuqoriroq bo'lib, qolgan ittifoq davlatlari ko'rsatkichlariga qaraganda nihoyatda past edi. Agar 1979-1991 yillarda O'zbekiston aholisi 34,7 foiz o'sgan bo'lsa, bu borada o'rtacha ittifoq ko'rsatkichi 10,5 foizga to'g'ri kelardi. Bu borada yurtimiz Tojikistondan pastroq (40,9) Turkmaniston bilan barobar turardi. Tug'ilishning yuqori darajasi mamlakat aholisining yosh tarkibiga keskin ta'sir ko'rsatdi. 1990-yil 10-oktyabr holatiga ko'ra O'zbekistonda doimiy istiqomad qiluvchi aholining 40,8 foiz qismini 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etsa, 15-39 yosh oralig'idagi aholi qatlami esa 40,7 foizni, 40-60 yosh oralig'idagi qatlam 12,0 foizni, 60 yoshdan yuqori aholi vakillari qatlami esa 6,5 foizni tashkil etardi.

O'zbekistonda bozor sharoitida ijtimoiy siyosat asosan 2 muhim yo'nalishda amalga oshirildi: ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot. Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini muttasil oshirib borish, qashshoqlanishning oldini olish, kasb mahoratini shakllantirish, aholi turli qatlamlari orasidagi keskin farqlarni kamaytirish. Ijtimoiy himoya tizimining qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yildi. Xususan konstitutsiyaning IX bobida iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar qonuniy jihatdan kafolatlandi. Ammo ijtimoiy himoya faqatgina ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotdan iborat emas, balki u o'z ichiga ijtimoiy totuvlik konsepsiyasini ham qamrab oladi. Keksalar, yoshlar, nogiron va kamta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda davlat umumiy aholining ham yashash darajasini oshirish borish siyosatini olib bordi. Xususan aholining bandligini ta'minlash asosiy masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bunda mamlakatda mehnat bozorini rivojlantirish va uni boshqarishni takomillashtirishga shuningdek samarali bandlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Chunki bozor iqtisodiyotida to'liq bandlik emas, balki samarali bandlik muhim ahamiyatga ega. Aytaylik iqtisodiy faol aholi to'liq bandlik bilan ta'minlandi lekin ular samarali yoki ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmasa, bunday bandlik mehnat unumdorligini oshirishga olib kelmaydi va undan jamiyatga naf tegmaydi. Samarali bandlikni ta'minlash va mehnat resurslaridan foydalanishning ahamiyati, ayniqsa moderinizatsiyalash, innovatsion texnologiyalarga o'tish davrida ro'yirost ko'zga tashlanadi. Samarali bandlik aholi daromadlarini oshirishga ularning xarid qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Misol uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) 1990-yilda 1328 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda 3271 AQSH dollariga teng bo'ldi, ya'ni 2,5 barobarga oshdi. Bundan tashqari 1990-2010 yillar oralig'ida 20 yil davomida o'rtacha oylik ish haqi miqdori (AQSH dollari ekvivalentida) 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmi esa 5,9 barobarga oshgan bo'lsa, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pullik xizmatlar miqdori 2,2 barobarga, maishiy xizmatlar 8,3 barobarga,

chakana tovar aylanmasi 4,3 barobarga oshdi. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning keyingi bosqichi 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasida" amalga oshirildi. Unga ko'ra Harakatlar strategiyasining 4 –konsepsiyasi sifatida Ijtimoiy sohani rivojlantirish ilgari surildi. Ushbu yo'nalish 5 ta muhim yo'nalishni o'z ichiga oladi: Birinchi yo'nalish: aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirish. Bandlikni ta'minlashda ayniqsa maktab va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini bandligini ta'minlash alohida o'rin egallaydi. Ikkinchi yo'nalish: aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish. Sog'liqni saqlash tizimida eng avvalo tez tibbiy yordam ko'rsatish faoliyati sifatini yaxshilashga, mamlakatda farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga, tibbiyot muassasalarini arzon va sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, onalar va bolalarning tibbiy xizmatdan foydalanishini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Uchinchi yo'nalish: arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, hamda moderinizatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Aholi eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqorolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga, muhtoj boshqa shaxslarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish, hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash. Bundan tashqari ekologik toza va xavfsiz muhitni yaratish, maishiy chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish, atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish dasturlari qamrab olindi. To'rtinchidan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bunda sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozori zamonaviy talablaridan kelib chiqib, malakali kadrlar tayyorlash dasturlari belgilandi. Beshinchi yo'nalish: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bunda jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni kamol toptirish asosiy vazifa etib belgilandi. Hozirgi kunda esa O'zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlari 2022-2026 yillarga mo'ljallangan PF-60-son 28.01.2022-yilda tasdiqlangan "Taraqqiyot" strategiyasida belgilab qo'yildi. Ushbu strategiyaning to'rtinchi yo'nalishida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyalari ilgari surilgan. Bunda sifatli ta'lim-tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo'lishi ta'kidlandi. Shu maqsadda o'qituvchilarning oylik maoshini izchil oshirib borish va 2025 yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko'zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlashga qaratilgan Milliy ta'lim dasturi ishlab chiqiladi. Aholi salomatligini saqlash uchun barcha sharoit yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentiga yetkazish mo'ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytiriladi. Davlat tibbiy sug'urta tizimi ishga tushirilib, mablag' aniq bemorga bog'langan holda ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Taraqqiyot strategiyasining 100 ta maqsadining 33 tasi (37-70) maqsadlari ijtimoiy hayot uchun ajratilgan. Xususan kasbga o'qish ko'lamini 2 barovarga oshirish,

maktabgacha ta'limdagi qamrovni 67% dan 80% ga oshirish, maktablarda o'quv o'rinlarini 2026-yil yakuniga ko'ra 6,4 millionga yetkazish, oliy ta'lim bilan qamrab olishni 2026-yilda 50% ga, qabul kvotalarini esa 250 mingtagacha yetkazish, reja yakunida 72 400 o'rinli 181 ta talabalar yotoqxonasini barpo etish va yotoqxonalar bilan ta'minlash darajasini 60% gacha ko'tarish, viloyatlarda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini ko'paytirish, chet elda o'qigan yoshlar sonini 2 barobarga oshirish (asosan texnik va aniq fanlar shuningdek IT sohasi bo'yicha), aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60% ga yetkazish, viloyatlarda tibbiyot klasterlarini tashkil etish, tibbiy sug'urtalashni bosqichma-bosqich joriy etish, tumanlararo 46 ta perinatal markazlarni tashkil etish, tibbiy xizmatlarda xususiy sektor ulushini 25% ga yetkazish, sport sohasida professional, oliy ma'lumotli trenerlar ulushini hozirgi 54% dan 2026-yil yakunigacha 85% oshirish va shu kabi asosiy rejalar "Taraqqiyot" strategiyasidan joy olgan.

Muhokama va Natija

Xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda ijtimoiy hayotni rivojlantirish dinamikasi barqarorlikka asoslangan bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillarida e'tibor asosan eng muhim masalalarga qaratilgan. Masalan, Sovet tuzumi muommolarini bartaraf etish, bozor iqtisodiyotini barpo etish, xususiylashtirish kabilar shular jumlasidandir. Bilamizki Sovet tuzumida xususiy mulkka egalik qilishga, biznes yuritishga va shu kabi bozor iqtisodining asosiy bazisi bo'lgan omillarga hech qachon ruxsat berilmagan. Ushbu tuzumda davlat xuddi bir fabrikadek tasavvur qilingan va davlat ishlab chiqqan yillik rejalar har qanday sharoitda bo'lmasin amalda bajarilishi shart bo'lgan. Bundan tashqari ishlab chiqarilinishi kerak bo'lgan mahsulotlarning yillik miqdori har yili oshirib borilgan va buning natijasida aqlga yig'maydigan, inson resurslari, moddiy resurslar va tabiiy sharoit yetishtirib bera olishi mumkin bo'lganidan bir necha barobar ko'proq darajada mahsulot talab etilishi oddiy holga aylangan. Natijada rejadagi miqdorni bajara olmagan xalq endi resurslardan ekstensiv foydalanishga majbur bo'lgan. Bir necha yillardan keyin esa tabiiy resurslar inqirozi sodir bo'lgan va ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi kabi sohalar zavolga yuz tutgan. Yana shuni aytish kerakki bozor iqtisodi bo'lmagan, fuqorolar o'z mehnatidan bahramand bo'la olmaydigan davlatda hech qachon insonlarda o'z ishini sidqidildan bajarishga rag'bat bo'lmaydi. Negaki bunday tuzumda hamma teng bo'lishi talab etiladi va inson qanchalik ko'p mehnat qilsa ham, yokida umuman mehnat qilmasa ham uning yashash sharoiti hech qachon o'zgarmaydi. Bunday tuzumni boshidan kechirgan O'zbekistonga yangi tuzum, ya'ni bozor iqtisodini olib kirish va uni fuqorolar ongiga singdirish murakkab jarayon edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan O'zbekiston o'tish davrini (1991-2000 yillar deb yuritiladi) muvaffaqiyatli bosib o'tdi. Keyingi davrlarda esa endi kichik muammolar ham kun tartibiga qo'yildi. Kamta'minlanganlar ahvolini yaxshilash, nogironlar, keksalarga e'tibor, yoshlar masalalariga oid muammolar hal etila boshlandi. 2017-yildan boshlab ijtimoiy sohaga oid tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Endi nafaqat yordamga muhtoj qatlamlarga g'amxo'rlik qilish balki barcha aholi qatlamlarni ijtimoiy ahvolini yaxshilashga, ularning real daroamadlarini oshirishga, kambag'allikni qisqartirishga, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor berila boshlandi. Kelgusidagi asosiy reja esa ta'lim sifatini

oshirish orqali butun millatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib 2023-yilga "Faol mahalla va sifatli ta'lim" yili deb nom berilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'ylaymizki bu O'zbekiston tanlagan eng to'g'ri yo'l chunki aqliy salohiyatga ega, mustaqil fikrlay oladigan, o'z ishining ustasi bo'lgan yoshlar davlatning bundan keyingi kadrlari hisoblanadi va jahon tajribasi shuni yaqqol ko'rsatadiki, sifatli ta'lim butun millatning kelajagini o'zgartira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov "Taraqqiyotning O'zbek modeli".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi" to'g'risidagi PF-5308-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.
4. <https://lex.uz/> sayti